

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайлловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODELI: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARINING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliyana Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i> MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI: MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI (Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i> IJTIMOIY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i> MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA: O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i> OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i> JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i> RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i> RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i> HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i> СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmuratov Umidjon Temurovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i> JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон ўғли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIK LARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIK LAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY Hujjatlar taxlili	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

TRANSFORMATION OF NATIONAL IDENTITY AND SOCIAL INTEGRATION: THE EXPERIENCE OF THE KOREAN DIASPORA IN UZBEKISTAN

Oybek Murodilovich Osarkulov

Researcher, Fergana State University

Abstract. This article analyzes the national identity of the Korean diaspora in Uzbekistan from a socio-philosophical perspective. Diaspora identity is interpreted as a socio-cultural phenomenon shaped in the context of a multiethnic society. The study highlights the connection of the Korean diaspora with historical memory, cultural heritage, and processes of social adaptation. Furthermore, issues of preservation and transformation of national identity are examined within the framework of integration and intercultural interaction. The findings of the article hold significant theoretical value for understanding diaspora identities in a multiethnic society.

Keywords: national identity, diaspora, Korean diaspora, multiethnic society, social philosophy.

MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOY INTEGRATSIYA: O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI

O'sarkulov Oybek Murodilovich

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

E-mail: osarkulovoybek@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistondagi koreys diasporasining milliy identikligi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Diaspora identikligi polietnik jamiyat sharoitida shakllanuvchi ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda koreys diasporasining tarixiy xotira, madaniy meros va ijtimoiy moslashuv jarayonlari bilan bog'liqligi ochib beriladi. Shuningdek, milliy identiklikning saqlanishi va transformatsiyasi masalalari integratsiya va madaniyatlararo muloqot kontekstida yoritiladi. Maqola natijalari polietnik jamiyatda diasporalar identikligini anglashda muhim nazariy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: milliy identiklik, diaspora, koreys diasporasi, polietnik jamiyat, ijtimoiy falsafa.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N17>

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekistonda "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" konseptual g'oyasi negizida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatning ijtimoiy ongida chuqur transformatsion jarayonlarni yuzaga keltirdi. Ushbu jarayonlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy sohalarni, balki ijtimoiy ong, identiklik va madaniy o'zini anglash tizimlarini ham qamrab olmoqda. Mazkur g'oya umumjamiyat miqyosida harakatlantiruvchi kuchga aylanib, "Yangi O'zbekiston" barpo etish jarayonining falsafiy-mafkuraviy asosini shakllantirmoqda.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, bu jarayon millatlararo munosabatlar tizimida ham sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berdi. Xususan, mamlakatda yashayotgan diasporalarning jamiyat hayotidagi o'rni va faolligiga alohida e'tibor qaratilishi ijtimoiy barqarorlik, madaniy xilma-xillik va fuqarolik birdamligini mustahkamlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu holat Uchinchi Renessans g'oyasining ijtimoiy asoslarini kengaytirib, jamiyat taraqqiyotida inklyuziv rivojlanish modelining ustuvorligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan vazmin va ochiq tashqi siyosat tamoyillari ham mazkur jarayonning falsafiy mazmunini chuqurlashtiradi. Murakkab geosiyosiy sharoitda teng huquqlilik, konstruktiv muloqot va o'zaro hurmat tamoyillariga asoslangan siyosat yuritilishi davlatning nafaqat tashqi aloqalarini, balki ichki ijtimoiy muvozanatini ham mustahkamlashga xizmat qilmoqda.[1]

Tarixiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, mustaqillikning dastlabki yillaridayoq O'zbekistonda koreys diasporasining institutsional shakllanishi ijtimoiy integratsiyaning muhim ko'rinishi sifatida yuzaga chiqqan. Toshkent shahrida koreys madaniy markazlarining tashkil etilishi, hududiy delegatlar ishtirokida konferensiyalar o'tkazilishi va keyinchalik Respublika assotsiatsiyasining tuzilishi diasporaning jamoaviy identikligini mustahkamlab, ko'pmillatli jamiyat sharoitida barqaror fuqarolik birdamligining shakllanishiga zamin yaratdi.[3]

1937-yilgi majburiy deportatsiya va repressiya oqibatida O'zbekistonga kelib qolgan koreyslar uchun bu hudud tarixan yangi vatan sifatida shakllandi. Ular vaqt o'tishi bilan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida faol ishtirok etib, o'z mehnati va madaniy merosi bilan jamiyat rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Bu holat ijtimoiy-falsafiy jihatdan adaptatsiya, madaniy moslashuv va identiklik transformatsiyasining yorqin namunasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan bildirilgan fikrlar ham mazkur jarayonning falsafiy asoslarini tasdiqlaydi. Uning ko'p millatlilikni jamiyat boyligi sifatida talqin qilishi O'zbekiston modelining asosiy tamoyillaridan biri — madaniy plyuralizm va o'zaro bag'rikenglik g'oyalariga uyg'un keladi. Koreys diasporasi vakillarining O'zbekistonni o'z vatani sifatida qabul qilishi esa ijtimoiy integratsiyaning muvaffaqiyatli kechayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda koreys milliy madaniy markazlari faoliyati diasporaning madaniy xotirasini saqlash, etnik identiklikni mustahkamlash va jamiyat bilan uyg'unlashuvini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ona tilini o'rganish, milliy bayramlarni nishonlash, folklor jamoalari va sport to'garaklari faoliyati orqali madaniy uzviylik ta'minlanmoqda. Shu bilan birga, "O'zbekistonlik koreyslarning an'analari va urf-odatlar" mavzusidagi respublika miqyosidagi konferensiya va seminarlar diasporaning ijtimoiy faolligini oshiruvchi, madaniy merosni avloddan avlodga uzatuvchi muhim ijtimoiy-falsafiy mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.[4]

Adabiyotlar tahlili. Koreya milliy markazi assotsiatsiyasi faoliyatini yoritib boruvchi nashr "Koryo Sinmun" o'zining dunyoga kelganini e'lon qildi. Gazetaning ilk soni 1997-yil 19-sentyabr Toshkent shahridagi Tezkor bosma nashriyotida (direktori – Kim Vitaliy Bongirovich) 5000 nusxada bosib chiqarildi. Yana bir nashr "Корейцы Узбекистана" gazetasi 2019-yil 1-noyabrdan nashr etila boshlandi.[5]

Hozirgi davrda teleko'rsatuv va radioeshittirishlar mamlakatda yashovchi 20 dan ortiq millat va elatlarning tillarida efirga berib borilmoqda. O'zbekiston kanalida Do'stlik studiyasi tomonidan tasvirga olib uzatiladigan "Yagona oilada", "Yagona osmon ostida", "O'zbekiston umumiy uyimiz", "Chinsen", "Didar", "Adolatli bo'lishga intilib", "Elomon" "Ranf" kabi ko'rsatuv va dasturlar, polietnik jamiyat sharoitida madaniy xilma-xillikni uyg'unlashtirish va milliy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy instrument sifatida baholanishi

mumkin. Ushbu tashabbuslar millatlararo dialogni rivojlantirish, milliy xotira va qadriyatlarni jamiyat hayotida uyg'unlashtirishda samarali vosita vazifasini bajaradi.[6]

Koreya milliy markazi assotsiatsiyasi o'z faoliyatini barcha koreys oilalarini milliy yozuvni o'rganishdan boshladi va bu borada ijobiy o'zgarishlarga erishdi.

1992-yil may oyida Toshkent shahrida Koreya Respublikasi elchixonasi huzurida Koreya Respublikasi Ta'lim markazi (KRTM) ochildi. Ushbu markaz qisqa vaqt ichida koreyslar orasida emas, balki koreys bo'lmaganlar orasida ham mashhurlikka erishdi. Masalan, 2008-yilda birinchi semestrda KRTM tomonidan taklif etilgan koreys tili kurslariga jami 1198 nafar tinglovchi ro'yxatdan o'tgan.

Hozirgi kunda O'zbekistonning poytaxti va yirik shaharlarida 24 ta koreys milliy-madaniy markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. Markaz orqali koreys tili, tarixi, madaniyati va ularning yutuqlari o'rganilmoqda. Ushbu markazlar orqali koreys tili, tarixi, madaniyati va ularning yutuqlari nafaqat saqlanib qolmoqda, balki polietnik jamiyatda milliy identiklikni mustahkamlash va madaniy integratsiyani rivojlantirishga xizmat qiladigan ijtimoiy-falsafiy platformaga aylanmoqda.

Ma'lumki, barcha diasporalar taraqqiyotining uch asosiy bosqichni boshidan kechiradi. Bular 1) shakllanish; 2) rivojlanish; 3) tarqalish yoki transformatsiya (boshqa shaklda namoyon bo'lish). Bunda shakllanish davrida diaspora oldida turadigan asosiy vazifa xalqning tilini madaniyatini himoya qilish, uning jismoniy hayot bo'lishiga kurashishdan iborat.

O'zbekistonning poytaxti va yirik shaharlarida 24 ta koreys milliy-madaniy markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. Markaz orqali koreys tili, tarixi, madaniyati va ularning yutuqlari o'rganilmoqda.

Kore-mar – asosan og'zaki nutqda mavjud bo'lgan va faqat oilaviy-maishiy muhitda qo'llaniladigan (Markaziy Osiyolik) koreyslar (yohud kore-saram) tilidir.

Kore-mar uzoq yillar davomida o'zining ona til makonidan izolyatsiyada yashadi, u rus tilining, shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlari tillarining kuchli ta'siriga uchradi. Natijada, kore-mar tilida hozirgi kunda Shimoliy Xamgyon (Shimoliy Koreya hududidagi viloyat) viloyatida allaqachon qo'llanilmayotgan leksik birliklar uchraydi. Bundan tashqari, uning grammatikasi va fonetikasi ham sezilarli o'zgarishlarga uchragan. Shu bois, kore-mar o'ziga xos, noyob lingvistik hodisa sifatida baholanadi.

Koryo mar tili bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu ishni birinchilardan bo'lib yosh Amerika Qo'shma Shtatlaridan koreys olimi Ross Kingning tadqiqotlarida shunday mavzuga aylangan edi, u koryo mar bo'yicha Garvard universitetida doktorlik dissertatsiyasini (PhD) himoya qilgan. Sovet koreyslarining assimilyatsiyasi va til haqidagi Xur Sent Chulning maqolasini ham eslatib o'tish mumkin.

Ungacha 1960-yillarida Olga Mixaylovna Kim ilmiy izlanish olib borib u "O'zbekiston SSR koreyslarining rus tilidagi nutq xususiyatlari (fonetik-morfologik ocherk) nomli nomzodlik dissertatsiyasi fundamental asar bo'lib u hozirgi kunda ham ilmiy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Natijalar va muhokama. 1970-yillarda O'zbekistondagi koreyslar orasidagi til holati mavzusini Ilya Grigorovich Yugay faol rivojlantirdi. 1982-yilda "Chet el muhitida zamonaviy til jarayonlarining rivojlanishi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Unda koryo saramlarning etnik identifikatsiyasining noaniqligi masalasini ko'taradi.

XX asrning 70-yillarida sovet koreyslarining rus tilidagi badiiy asarlari adabiy maydonga chiqdi. Ularda Anatoliy Andreyevich Kim, qayta qurish davrida Qozog'istonlik faylasuf Pak Irina Aleksandrovna va sovet koreyslarining qo'shiq madaniyatida Ten Chu va teatrida esa Kim Iosif Fedorovich alohida o'rin egallaydi.

Bu tilning saqlanib qolishi yoki yo'qolib borishi – faqat so'zlashuv muloqotining o'zgarishi emas, balki diaspora vakillarining o'z tarixiy ildizlariga munosabati, til orqali o'zligini anglash ehtiyoji bilan chambarchas bog'liq. Kore-mar tili zamonaviy yosh avlod orasida deyarli so'zlashilmaydi, u asosan yoshi katta avlod vakillari tilida yashab qolgan. Bu holat ijtimoiy-falsafiy jihatdan assimilyatsiya holatining chuqurlashuvi, global madaniy muhitning bosimi va etnik o'zlikning tilda ifodalanishi zaiflashayotganini anglatadi.

O'zbekistondagi koreys millatiga mansub bo'lganlarni o'qitish uchun ko'p pedagog mutaxassislar kerak edi. Shu maqsadda koreys milliy madaniy markazlari Respublika assotsiatsiyasi 1992-yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligiga quyidagilar bilan iltimosnoma bilan murojaat qildi: a) Nizomiy nomli TDPDida koreys bo'limi talabalari sonini 50 taga yetkazish; b) respublika mintaqalarida koreys tili bo'yicha olimpiadalar tashkil etish va ularning g'oliblarini Pedagogika universitetiga qabul qilish; v) koreys tili bo'yicha o'qituvchilar malakasini oshirish.

Shu bilan birga, har yili o'tkaziladigan "O'zbekistonlik koreyslarning an'analari va urf-odatlar" respublika konferensiya-seminarlari diasporaning madaniy xotirasini tiklash, avlodlar o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash va milliy qadriyatlarni zamonaviy ijtimoiy muhit bilan uyg'unlashtirishda muhim ijtimoiy-falsafiy ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, koreys diasporasining institutsional faoliyati milliy identiklikning saqlanishi va transformatsiyasi, shuningdek, ijtimoiy integratsiya jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Koreys tilini o'qitilishi va pedagogikasi bo'limi asoschisi va o'qituvchisi V.F.Kanning qat'iy sa'y-harakati natijasida amalga oshdi. 1990-yilda institutda Koreys tili va adabiyoti kafedrasini tashkil etilishi koreys tilining O'zbekiston oliy ta'lim muassasalaridagi akademik maqomini mustahkamladi. 1993-yilda esa Toshkent davlat sharqshunoslik institutida koreys tili bo'limi ochildi.

2005-yilda O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida Koreys filologiyasi kafedrasining tashkil topishi bilan davom etdi. Shuningdek, Samarqand chet tillar instituti qoshida ham koreys tili va adabiyoti bo'yicha ixtisoslashgan bo'lim faoliyat yuritmoqda. Mazkur oliy ta'lim muassasalarida koreysshunoslik yo'nalishida bakalavr va magistrlar tayyorlanmoqda. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, bu holat milliy identiklikning institutsional shakllanishi va uning polietnik jamiyat sharoitida barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholanishi mumkin.

2013-yili Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tashkiloti homiyligida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (sobiq instituti)da elektron kutubxona tashkil etildi. Shu bilan birga, 2018-yili tashkil etilgan Koreyashunoslik fakulteti qoshida ham kutubxonaga asos solindi. Bugungi kunda kutubxona fondida 10000 dan ortiq koreys tili, koreys tilini o'qitish metodikasi, koreys tili bo'yicha test sinovlari, koreys adabiyoti, tarixi, madaniyati, iqtisodiga oid o'quv qo'llanma va darsliklardan tashqari badiiy adabiyotlar ham mavjud. Kutubxona fondi har yili Koreya Respublikasining qator tashkilotlari, oliy ta'lim muassasalari tomonidan doimiy tarzda yetkazib berilayotgan o'quv adabiyotlari bilan boyitilmoqda. Falsafiy nuqtai nazardan,

mazkur kutubxonalar koreys diasporasi milliy identikligining bilim, xotira va madaniy uzviylik orqali mustahkamlanishida muhim intellektual makon sifatida namoyon bo'lmoqda.

Qator boshqa oliygohlarda esa koreys tili ikkinchi chet tili sifatida yoki fakultativ fan tarzida o'qitiladi. Ayni paytda ushbu oliy o'quv yurtlarida Koreys tili markazlari faoliyat yuritib, tilni nafaqat o'qitish, balki uni milliy o'zlikni saqlash va qayta tiklash vositasi sifatida qarashga xizmat qilmoqda.

Toshkent shahrida Janubiy Koreya Ta'lim markazi hamkorligida har yili o'rtacha 3,5 ming kishi tahsil oladi. Talabalar tarkibining uchdan bir qismini koreyslar bilan bir qatorda o'zbek, qozoq, rus, tatar va boshqa millat vakillari tashkil etadi. Bu holat koreys madaniyatiga nisbatan keng ommaning yuqori darajadagi qiziqishi va hurmatini namoyon etadi.

Bugungi kunda respublika bo'ylab 100 dan ortiq maktabda koreys tili o'qitilmoqda. Sejong koreys tili maktabida esa yuzlab tinglovchilar koreys tilini o'rganib, malaka oshirgan. Ushbu ta'limiy faoliyatlar koreys tilining nafaqat xorijiy til sifatida, balki milliy madaniy identitetni saqlovchi vosita sifatida ham qayta tiklanayotganini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyodagi etnik koreyslarning deyarli barchasi, istisnolarni hisobga olmaganda, rus tilida so'zlashuvchi hisoblanadi. Bu holat, bir tomondan, ularga Sovet davrida qisqa vaqt ichida intellektual yuksalish va bilimli ijtimoiy qatlamlar safidan o'rin egallash imkonini berdi. Ammo, boshqa tomondan, bu jarayon ularning tarixiy ona tilidan uzoqlashishiga olib keldi. [7]

Ayni damda, ayniqsa O'zbekistonda, til muhiti tubdan o'zgarib bormoqda va bu o'zgarishlar etnik koreyslar uchun "teskari integratsiya" – ya'ni o'z ona tiliga, tarixiy-madaniy ildizlariga ongli va faol ravishda qaytish imkonini taqdim etmoqda. Koreys tilining amaliy, ijtimoiy va madaniy ahamiyati sezilarli darajada oshib borayotgan bir sharoitda, bu jarayon nafaqat tilni o'rganishga, balki milliy ongini tiklashga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kundagi Koryo saramlar (Markaziy Osiyodagi koreyslar o'zlarini shunday ataydilar) koreys tilini o'rganayotgan bo'lsa (bu yoshlarning taxminan 10 foizi), u holda ular janubiy koreys adabiy tilining – Changuk mal' (ya'ni Seul lahjasi) variantini o'zlashtirishmoqda.[8]

Bugungi kunda koreys tili nafaqat muloqot vositasi, balki zamonaviy kasblarni egallash uchun zaruriy shart sifatida maydonga chiqmoqda. Endi shunchaki koreys tilida gaplasha olish yetarli emas – ushbu tilni yuqori darajada egallash, ya'ni kasbiy faoliyatda erkin qo'llay olish ko'nikmasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi o'n yillik ichida O'zbekistonda koreys oliy ta'lim muassasalari filiallari faoliyat yurita boshladi. Qizig'i shundaki, bu holat sobiq Sovet hududidagi boshqa davlatlarda deyarli kuzatilmayapti. Bu o'ziga xos O'zbekiston fenomeni bo'lib, koreys ta'limiga bo'lgan ehtiyoj va talab darajasining yuqoriligini ko'rsatadi.

Shuni alohida qayd etish joizki, 1989-yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston hududida 183140 nafar koreys millatiga mansub aholi istiqomat qilgan. Ushbu demografik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 45 yoshdan katta koreyslar orasida 73,9 foiz respondent koreys tilini o'z ona tili deb ko'rsatgan bo'lsa, 45 yoshgacha bo'lganlar orasida bu ko'rsatkich 49,8 foizni tashkil etgan.

Biroq statistik ko'rsatkichlar har doim ham real til bilish darajasini aks ettira olmaydi. Chunki koreys tilini "ona tilim" deb e'tirof etgan ko'p insonlar amalda bu tilni erkin so'zlash,

o'qish va yozish darajasida bilmagan. Bu esa milliy identitet va tilga nisbatan emotsional bog'liqlik real funksional savodxonlikdan ancha farqlanishini ko'rsatadi.[9]

Assotsiatsiya rahbariyati o'z ish faoliyatida koreys diasporasidagi koreys yozuvi savodsizligini tugatishga ham katta e'tibor berdi. Shu maqsadda Koreya Respublikasi mazkur tadbirlarning barchasini moddiy jihatdan ta'minlashda O'zbekistonga yaqindan yordam berib kelmoqda. Bunda Janubiy Koreyaning KOICA (Korea International Cooperation Agency), ya'ni Koreya Xalqaro Hamkorlik Agentligi katta hissa qo'shmoqda. Bu esa O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi do'stlik, hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Farg'ona viloyat koreys milliy madaniy markazi Farg'ona va Qo'qon shaharlarida koreys tilini o'rganish kurslarini tashkil etdi. 1995-yilgacha bu yerda 200 dan ortiq koreys millati vakillari o'z milliy tillarida yozish va o'qishni o'rgandilar.

Farg'ona davlat universiteti akademik litseyida ham koreys tilini o'qitishga va savodxonligiga Janubiy Koreyaning KOICA tashkiloti ham yaqindan yordam berib kelmoqda. Bu o'quv dargohida 2015-yildan Janubiy Koreyadan kelgan pedagog Kvak Xyo Jong, 2017-yildan Kim Young Gue, 2024-yildan Kim Yong Nam ishlab kelmoqda.

KOICA volontyorlari (Janubiy Koreya xalqaro hamkorlik agentligi) bu borada muayyan amaliy yordam ko'rsatib kelmoqda. Biroq, koreys tilini saboq berishda uslubiy jihatdan tayyorlangan, ham tilni yaxshi biladigan, ham uni o'rgatish uslubiyotiga ega bo'lgan mahalliy mutaxassislariga ehtiyoj O'zbekistonning chekka hududlarida sezilarli darajada.

Xulosa. O'zbekistonda bir qator maktab va oliy ta'lim muassasalari koreys tili fakultetlarining ochilishi beqiyos ahamiyatga ega bo'ldi. Bu nafaqat koreys diasporasi madaniy-ma'rifiy ehtiyojlarini ta'minlash, balki keng ma'noda til siyosati, milliy va etnik identitetning tiklanishi hamda saqlanishiga xizmat qildi.

Globalashuv jarayonlarining kuchayib borayotgan bugungi davrida xalqaro munosabatlar tizimida mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilish, davlatlararo diplomatik aloqalarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish masalasi O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi ustuvor prinsiplaridan biriga aylangan. Ayniqsa, barqaror rivojlanish, tinchlik va barqarorlik muhitini ta'minlash zamonaviy jamiyatlar uchun muhim shart bo'lib qolmoqda. Bu borada Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida shunday fikrlarni ta'kidlagan edi "Yaqin qo'shnilarimiz bilan ko'p asrlik do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik va o'zaro ishonch ruhida aloqalarimizni yanada rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratamiz. Bunda mintaqamiz davlatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, transport-logistika, energetika, suv, ekologiya, xavfsizlik, madaniyat va ta'lim sohalarida hamkorlikni yanada chuqurlashtiramiz."

Xulosa o'rnida koreys diasporasi misolida mintaqaviy hamkorlik polietnik jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, madaniy xilma-xillik va o'zaro ishonchni mustahkamlovchi muhim ijtimoiy-falsafiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси, Тошкент: "Ўзбекистон", 2021,
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.26.12.2025

3. Musayev .O.R Mustaqil O'zbekistonda millatlararo munosabatlar. – T.: Iqbol dunyosi,1997 – B. 107.
4. Saydazimova U.T. O'zbekiston koreyshunosligi: ilm-fan sarhadlari kengaymoqda // O'zbekiston–Koreya: o'zaro hamkorlikning bugungi kuni va istiqbollari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T: Istiqlol nashriyoti, 2022. – B. 9.
5. Kore saram. Ensiklopedicheskoe izdanie / Sost. Kim V.N., Kim M.I., Chen V.S. – 2-ye izd. – M.: Pervaya Obrazsovaya tipografiya, filial Chexovskiy Pechatnyy Dvor, 2020. – S.-281.
6. Xaynazarov B.B. O'zbekiston uyg'urlari diasporasi tarixi (1925-2012) 07.00.01 O'zbekiston tarixi b'oyicha falsafa doktori (PhD) uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2018. – B. 104.
7. Koreyskaya diaspora v Sentralnoy Azii: istoriya, kultura i sotsialnaya jizn. K 85-letiyu projivaniya koreysev v Sentralnoy Azii / Otv. red. V.V. Nam, V.S. Xan. – Tashkent: Universitet Puchon v Tashkente, 2024. – C. 46.
8. Trofimenko O.A. Chto takoe «kore mar»? // Vestnik Irkutskogo gosudarstvennogo lingvisticheskogo universiteta. 2012. № 4 (21). S. 115.
9. Xan V. S. Istoriografiya koreysev Sentralnoy Azii: osnovnye napravleniya i etapy razvitiya. – T.: Bactria press, 2021. – S. 492.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).